

**INSON TANAA'ZOLARINING LOTINCHA ANATOMIK ATAMALARI.
(Termini anatomici Latini in corpore humano)**

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali, o'qituvchisi

Po'latova Saltanat Mirzaliyevna

pulatova62@inbox.ru

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali, talabasi

Shaymanova Dilmura Botirali qizi

shaymanovadilmura7@gmail.com

Inson tanasining murakkab tuzilishini tushunish tibbiyot va biologiya fanlarining fundamental asoslaridan biridir. Bu murakkablikni samarali o'rganish va muloqot qilish uchun aniq va universal til zarur. Aynan shu maqsadda lotin tili asrlar davomida anatomik atamalarning xalqaro standarti bo'lib kelgan.

Ushbu mavzu inson tanasidagi asosiy anatomik tuzilmalarning lotincha nomlari, ularning kelib chiqishi va tibbiyotdagi ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan. Lotincha atamalarni bilish nafaqat tibbiy mutaxassislar uchun o'zaro tushunishni osonlashtiradi, balki ilmiy adabiyotlarni tushunish, aniq tashxis qo'yish va samarali davolash usullarini ishlab chiqishda ham muhim rol o'ynaydi.

Ushbu mavzu davomida biz inson tanasining turli bo'limlari, suyaklar, mushaklar, ichki organlar va boshqa muhim tuzilmalarning lotincha nomlari bilan tanishamiz. Shuningdek, ba'zi atamalarning etimologiyasi va ularning ma'nolarini ham ko'rib chiqamiz.

Dolzarbligi

Tibbiyot fani taraqqiyoti va zamonaviy ilm-fan yutuqlari shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu sohaning asosiy poydevorlaridan biri sifatida lotin tili alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, inson anatomiyasi sohasida lotin tilidagi atamalar bir necha asrlardan buyon universal va xalqaro muloqot vositasi sifatida xizmat qilib kelmoqda. Har bir inson tanasining tuzilmasi, organlarning nomlanishi, ularning joylashuvi va o'zaro aloqalari lotin tilidagi terminlar orqali ifodalanadi. Bu holat nafaqat o'tmishda balki hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Shuningdek, bugungi kunda tibbiyot ta'limi tizimida anatomik bilimlar asosiy fanlardan biri sifatida o'qitiladi. Bu jarayonda talabalar ko'plab lotincha atamalar bilan tanishadi, ularni o'zlashtiradi va amaliyotda qo'llashni o'rganadi. Lotin tili orqali anatomik terminologiyani chuqurroq o'zlashtirish nafaqat savodxonlikni oshiradi

balki, kasbiy tayyorgarlik darajasini ham yuksaltiradi. Har bir tibbiyot xodimitalabadan tortib yetuk mutaxassisgacha lotincha anatomik terminlarni bilishi va ulardan to‘g‘ri foydalana olishi kerak. Bu nafaqat tarixiy yoki nazariy ahamiyatga ega, balki amaliy, kasbiy va global miqyosda ham nihoyatda dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi-inson anatomiyasida qo‘llaniladigan lotincha atamalarni tizimli ravishda o‘rganish, ularning ma‘no (sematik) xususiyatlarini tahlil qilish, amaliy tibbiy faoliyatdagi o‘rnini aniqlash hamda tibbiyot ta‘limida bu terminlarning ahamiyatini yoritib berishdan iborat. Bundan tashqari, anatomik terminlarning qismlarga bo‘linishi, eng ko‘p qo‘llaniladigan atamalarni tahlil qilish, talabalar va yosh tibbiyot mutaxassislari uchun foydali ma‘lumotlar bazasini shakllantisih uchun manba bo‘ladi.

Materiallar va taqqiqot usullari

Lotincha anatomik atamalar- bu inson tanasining tuzilishiga oid barcha organlar to‘qimalar, suyaklar, bo‘g‘inlar, qon-tomirlar, mushaklar va boshqa tizimlariga berilgan nomlardir. Ushbu atamalar dunyo miqyosida yagona, aniq va o‘zgarmas tibbiy terminlar sifatida qabul qilingan. Masalan: hepar- jigar, caput-bosh, pulmo- o‘pka vertebra-umurtqa va h.k.

Bu atamalarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, qisqa va mazmunli , aniq joylashuvni, morfologik tuzulishga asoslangan turli tillarda so‘zlashuvchi shifokorlar o‘rtasida yagona tushuncha yaratadi.

Lotin tili o‘lik til, ammo undagi atmalar zamon o‘tishi bilan o‘zgarmaydi. Bu esa tibbiyot fanining uzluksiz rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Hozirgi kunda “Terminologiya anatomica” deb ataluvchi xalqaro hujjat bo‘lib, u orqali barcha lotincha anatomik atamalar rasmiy tartibga solingan. U 1998-yilda IIFA (Xalqaro Anatomlar Assotsiatsiyasi) tomonidan ishlab chiqilgan va joriy etilgan. Hozirgi kunda, barcha tibbiyot oliygohlari va ilmiy tadqiqot markazlari “Terminologiya anatomica”ni o‘z ta‘lim dasturida qo‘llaydi.

Natijalar va ularning muhokamasi

Tadqiqotning muhim natijasidan biri bu – lotincha anatomik atamalarning ta‘lim jarayonidagi o‘rni. Har bir tibbiyot fakulteti yoki universitetida lotincha atamalarni o‘rgatish metodikasi turlicha bo‘lishi mumkin. Ba’zi o‘quv muassasalarida atamalarni o‘zlashtirishga qaratilgan intensiv metodlar qo‘llanilsa, boshqalarida esa an’anaviy darsliklar va amaliy mashg‘ulotlar asosida ta‘lim beriladi. Lotincha atamalarni

o'rganishda ta'lim metodikasining interaktiv yondashuvlari (masalan, visual modellar, 3D diagrammalar, animatsiyalar) talabalar o'zlashtirishida yanada samarali ekanligi aniqlangan. Bundan tashqari yana tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, lotincha atamalarning aniqligi, qisqalik va internationalizatsiyasi tibbiy ta'limda muhim rol o'ynaydi. Ammo ularni o'rganishda ba'zi bir qiyinchiliklar va chalkashliklar, ayniqsa murakkab atamalar va ularning tarjima qilishda ham yuzaga keladi. Lotincha anatomik atamalarni tarjima qilishda har bir tilning o'ziga xos grammatika va sintaksis tuzilishi muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, bir necha ekvivalent tarjimalarni ishlatish ba'zan chalkashliklarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun o'quv jarayonida tushuncha aniqligi va atamalarga bo'lgan yodashuv to'g'ri ta'minlanishi lozim. Lotincha anatomik terminlarni o'rganish har bir tibbiyot hodimiga global tibbiy hamkorlik va ilmiy izlanishlarda o'z samarasini albatta namoyon etadi. Bu esa o'z navbatida inson anatomiyasiga oid umumiy tushunchalar va ilmiy kashfiyotlarga olib keladi.

Xulosa

Tadqiqot davomida inson anatomiyasidagi lotincha atamalarning ilmiy va pedagogik ahamiyati, ularni o'rganish jarayonidagi murakkabliklar, va ularni samarali o'rgatish uchun kerakli yondashuvlar haqida keng qamrovli tahlillar amalga oshirildi. Shuningdek, lotincha atamalarning ta'limdagi samaradorligi faqat shifokorlar yoki talabalarga emas, balki umumiy jamoatchilikka ham ta'sir qiladi. Anatomik tuzilmalarning global miqyosida tushunilishi va ular haqida to'g'ri fikrlarni shakllantirish nafaqat shifokorlar uchun, balki bemorlar uchun ham muhimdir. Chunki aniq diagnostika, samarali davolash va profilaktika, atamalarning to'g'ri qo'llanishiga bog'liqdir. Bundan tashqari bemor bilan shifokor o'rtasidagi muloqotning tushunarli aniq va qizg'in bo'lishiga ham sabab bo'ladi. Lotincha anatomik atamalarni o'rganishda mavjud muammolarni bartaraf etish uchun kelajakda yangi metodologiyalarni va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish nihoyatda muhim. Lotincha anatomik atamalarni o'rganishning yangi metodologiyalari nafaqat talabalarning bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi, balki ularga tibbiy sohada kengroq fikrlash imkonini ham taqdim etadi.

Tibbiyotda lotincha anatomik atamalarni o'rganishning kelajagi faqat tibbiy ta'limning uzviy rivojlanishida emas, balki global miqyosida tibbiy bilimlarni birlashtirish va xalqaro hamkorlikni yanada kuchaytirish orqali amalga oshiriladi. Bu esa nafaqat ilm- fan balki, sog'liqni saqlash sohasining yanada ravnaq topib rivojlanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бакаев Нажмиддин Бакаевич. (2022). Проблемы обучения латинской анатомической терминологии в полилингвальной группе и пути их решения. *Eurasian journal of academic research*, 2(9), 49–56. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7073544>
2. Shahobiddin Sharofiddinovich Shodiyev. Bakayev Najmiddin Bakayevich. (2020). The role of the Latin language in the history of world statehood. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 05 (85), 367-372. SoI: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-05-85-71> Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS> Scopus ASCC: 1203. The role of the latin language in history of world statehood.
3. Zikiriyayeva Manzura Mavlonovna, Hakimova Muhabbat Alimovna Psychology in teaching English language. Innovative Academy Research Support Center. <https://doi.org/10.5281/zenodo>.
4. Medical dictionary. (London, 1984); Dorland's illustrated medical dictionary. (Philadelphia, 1974); Stedman's medical dictionary. (Baltimore, 1982),
5. Энциклопедический словарь медицинских терминов. (М., 1984).
6. Dunglison. R. A dictionary of medical science.-Philadelphia, 1874;
7. Clark Hall J. R. Concise Anglo-Saxon Dictionary.-Cambridge,1962;
8. Stratmann F.H.,Bradley H. A Middle English Dictionary. -London, 1963.
9. Safarov Sh. Pragmalingvistika. -Т.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2008.